

YANGILANGAN KONSTITUTSIYADA TA'LIMNING HUQUQIY ASOS VA KAFOLATLARINI USTUVOR NORMA SIFATIDA BELGILANISHI

Xursandov Alisher Suyunovich,

Jamoat xavfsizligi universiteti

“Tillarni o‘rganish” kafedrasida boshlig‘i, PhD, dotsent

Tel: (99) 279–62–86

Annotatsiya: Maqolada milliy qonunchilikda ta'lim va uning huquqiy asos va kafolatlarining belgilanishi yoritilgan, ayrim huquqiy normalarning Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ustuvor normalar sifatida qayd etilganligi xususida fikr yuritilgan.

Kalit sozlar: Konstitutsiya, konstitutsiyaviy norma, qonun, modda, norma, ta'lim, ta'lim islohotlari, huquqiy asos, kafolatlar, shart-sharoitlar.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz, ya‘ni O‘zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari, o‘quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, shuningdek, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash bo‘yicha samarali va izchil ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Ta'limning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida milliy qonunchilikka bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, qonunlar, konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, 2019-yil 16-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ–595-son Qonuni (Ushbu Qonunning maqsadi maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat), 2020-yil 23-sentyabrda “O‘zbekiston Respublikasining ta'lim to‘g‘risida”gi O‘RQ–637-son Qonuni (Ushbu Qonunning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat), 2023-yil 27-mart O‘zbekiston Respublikasining “Pedagog xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishga to‘sqinlik qilinganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksiga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish” O‘RQ–826-son Qonuni (Ushbu Qonun ta'lim tashkilotining pedagog xodimlarini majburiy mehnatga jalb qilish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun, pedagog xodimlarning kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishga, shuningdek, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi).

Ta'kidlash joizki, joriy yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiya kuni bayram munosabati bilan yo‘llagan tabrigida

Konstitutsiyani isloh qilish bo'yicha ko'rsatib berilgan asosiy yo'nalishlarning yettinchisida – “Yangi O'zbekiston – ma'rifiy jamiyat” konsepsiyasi asosida konstitutsiyaviy ta'lim masalasiga ham alohida e'tibor qaratish kerakligi, parlament tomonidan Konstitutsiyani o'qib-o'rganish bo'yicha Milliy faoliyat dasturi qabul qilinganligini ta'kidladi va quyidagi vazifalarni taklif etdi, jumladan: Asosiy qonunimizni o'rganishni bolalar bog'chasidan boshlash, barcha darajadagi ta'lim muassasalari, aholining turli qatlamlari, ayniqsa, davlat xizmatchilari ushbu jarayonga to'liq jalb etilishi, davlat xizmatiga ishga kirishda Konstitutsiya asoslari bo'yicha imtihonlat o'tkazish tizimini amalda tatbiq etish zarurligi belgilandi.

Darhaqiqat, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi. Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi. Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir.

O'zbekistonda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili” Davlat dasturi bo'yicha 2023-yilning 9 oyi mobaynida maktabgacha ta'lim tizimida budget mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish axborot tizimi ishlab chiqilgan hamda “Yagona mavsumiy taomnoma” joriy etilgan. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1–4-sinf qardosh tillar o'quvchilari uchun ona tili fanidan 200 nusxada darsliklar hamda davlat tilida 36,4 mln. nusxada 775 nomda darslik chop etilgan.

Talabalarni talabalar turar joyiga onlayn joylashtirish imkoniyatini beruvchi axborot tizimi ishlab chiqilgan. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali talabalarni yotoqxonalariga joylashtirishning onlayn shakldagi shaffof mexanizmi yo'lga qo'yilgan. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali talabalarni yotoqxonalariga joylashtirishning onlayn shakldagi shaffof mexanizmi yo'lga qo'yilgan.

Talabalarni talabalar turar joyiga onlayn joylashtirish imkoniyatini beruvchi axborot tizimi ishlab chiqilgan. Barcha kurslar kesimida 111 304 nafar talabalar turar joyiga joylashtirilgan. Talabalar turar joylariga o'rinlarni taqsimlashda talabalarning ijtimoiy mezonlarga mosligi avtomatik tarzda tekshirilgan. Xorijiy davlatlarning eng nufuzli universitetlarida bakalavriat, magistratura va doktoranturada ta'lim olish uchun ochiq saralash tanlovlari o'tkazilgan.

Ijtimoiy davlatda, ya'ni O'zbekistonda pedagoglarga bo'lgan e'tibor yanada kuchaymoqda. “O'zbekiston – 2030” strategiyasi bo'yicha yillar mobaynida, xususan 2024-yil 1-yanvardan boshlab:

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga oqsil, vitamin va minerallar bilan boyitilgan sut, yod bilan to'yintirilgan non mahsulotlari berishi yo'lga qo'yiladi;

Xorazm viloyatining Qo‘shko‘pir va Xonqa tumanlarida eksperiment tariqasida, barcha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta‘lim planshetlari bilan ta‘minlandi. Ushbu amaliyot kelgusida respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich joriy etildi;

umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari “tayanch maktablar” tomonidan yangi ta‘lim dasturlari, dars o‘tishning ilg‘or metodikalari va o‘quvchi bilimini baholashning zamonaviy usullariga o‘rgatiladi;

professionaal ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar lavozim maoshlari o‘rtacha 20 foizga oshirilishiga erishiladi. Shuningdek, professional ta‘lim muassasalarining fidoiy, tashabbuskor hamda yuqori natijalarga erishgan pedagog va ishlab chiqarish ta‘limi ustalarining bazaviy tarif stavkalariga har oylik 50 foizgacha ustama to‘lash tizimi joriy etiladi.

Konstitutsiyaning 50–53-moddalarida ta‘lim va uning huquqiy asos va kafolatlariga tegishli bo‘lgan ustuvor normalar belgilangan. 50-moddada O‘zbekistonda har kim ta‘lim olish huquqiga ega ekanligi, davlat bepul umumiy o‘rta ta‘lim va boshlang‘ich professional ta‘lim olishni kafolatlayotganligi, maktabgacha ta‘lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta‘lim davlat nazoratida ekanligi qayd etilgan. Shuningdek, 52-moddada davlat o‘quvchilarning sha‘ni va qadri-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘rish to‘g‘risida hamxo‘rlik qilishi eslatilgan.

Aytish joizki, O‘zbekistonda ta‘lim va tarbiya maktabgacha ta‘lim tashkilotidan boshlab, so‘ng oliy ta‘lim va undan keyingi ta‘lim bosqichlarigacha davom etadi. Darvoqe‘, insonning huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlanadi. Bola dunyoga kelishi bilan unga oilada, so‘ng esa maktabgacha ta‘lim tashkiloti, umumiy o‘rta ta‘lim maktabi, oliy ta‘lim dargohlarida ta‘lim va tarbiya beriladi. Samarali ta‘lim va tarbiya natijasida o‘laroq yurtda kerativ fikrlaydigan, mantiqiy mushohada yuritadagina, o‘z ona tilidek uch-to‘rtta xorijiy va sharq tillarida erkin gaplasha oladigan, axborot-kommunikatsiya vositalaridan maqsadli va unumli foydalana oladigan zamonaviy va salohiyatli kadrlar yetishib chiqadi. O‘zbekistondan ushbu toifadagi yoshlar va unub-o‘sib kelayotgan yosh avlod nihoyatda ko‘p sonni tashkil etadi. Shu o‘rinda e‘tiboringizni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” kitobidagi ma‘lumotlar jalb etamiz. E‘tibor bering “oxirgi yarim yilda iqtidorli o‘quvchilarimiz xalqaro olimpiadalarda 4 ta oltin, 18 ta kumush, 30 ta bronza medalini qo‘lga kiritgan. Farzandlarimizning san‘at dunyosiga oshno etish maqsadida 800 dan ortiq madaniyat markazida 4,5 mingdan ziyod to‘garak faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Maktablarda tashkil etilgan 36,5 mingdan ziyod to‘garaklarga 1 million 100 ming nafar o‘g‘il-qizlar jalb etilgan. So‘nggi 5 yilda bakalavriat bosqichida 134 ta ta‘lim yo‘nalishi, magistraturada 147 ta mutaxassislik yangidan tashkil etilgan” (5, 352–335). Mazkur ma‘lumotlar shuni anglatadiki,

Konstitutsiyaning 50-moddasining ikkinchi qismida qayd etilgan norma amaliyotda o‘z ifodasini topgan.

Konstitutsiyada qayd etilganidek, “davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishi”ga jiddiy e’tibor qaratdi. Ta’lim va tarbiya olish uchun yetarli shart-sharoit yaratishni strategik maqsad sifatida belgilaydi. Ta’limning barcha turlarida, ya’ni maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shuningdek, maktabdan tashqari ta’limda keng imkoniyatlarni ishga solib, ta’lim oluvchilarga yetarli shart-sharoitlar yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 45-moddasida “Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashishga, ta’lim oluvchilarning bilimlarini to‘g‘ri va xolis baholashga ta’sir ko‘rsatishga, shuningdek, ushbu pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to‘sqinlik qilishga yo‘l qo‘yilmaydi” norma hamda “Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqlari, sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat himoyasi ostida bo‘ladi” norma Konstitutsiya darajasiga ko‘tarilgan. Umumxalq referendumi bilan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasi ikkinchi qismida ijtimoiy davlatda pedagog xodimlarning ulug‘lash, ularning sha’ni va qadr-qimmatini himoyasiga taalluqli norma o‘z ifodasini topgan: “Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi” (4, 22). Demak, ushbu konstitutsion norma shuni anglatadiki, har bir pedagog xodimlarning sha’ni va qadr-qimmati Konstitutsiya bilan himoyaga olingan. Yangi O‘zbekistonda, xususan Uchinchi Renessans davrida pedagoglarga bo‘lgan hurmat va ehtirom yuksak darajada oshdi. Fidoyi va tashabbuskor o‘qituvchilarning ilm-fan, ta’lim va rivojiga qo‘shgan hissalarini uchun rag‘batlantirish, taqdirlanish ishlari amalga oshirib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti so‘zlari bilan aytilgan, “Jamiyatda bog‘cha tarbiyachi, maktab muallimi, oliygohlarning professor-o‘qituvchilari va ilmiy-ijodiy ziyolilarni bugun biz intilayotgan Uchinchi Renessansining to‘rt tayanch ustuni deb e’tirof etmoqdamiz. Shundan kelib chiqib, ularning hurmat-e’tiborini oshirish, xususan, muallim va ustozlarning qadri, sha’ni va g‘ururini tiklash, mashaqqatli va sharaflil mehnatini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish bo‘yicha boshlagan ishlarimizni albatta yangi pog‘onga ko‘taramiz” (5, 227-228).

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 47-moddasi sakkizinchi qismidagi “Pedagog xodimlar va ta’lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari tomonidan hayoti va sog‘lig‘iga qilinadigan har qanday jismoniy hamda ruhiy zo‘ravonlikdan, shaxsi haqoratlanishidan himoyalani” normasining ma’muriy va jinoiy jihatlari “Pedagog xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishga

to‘sqinlik qilinganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksiga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish” Qonunida ustuvor norma bilan belgilandi. Mazkur qonunda belgilagan [197⁵-modda](#) birinchi qismi muvofiq, “Ta‘lim tashkiloti pedagog xodimining kasbiy faoliyatiga ta‘lim oluvchilarning bilimini to‘g‘ri va xolis baholashiga ta‘sir ko‘rsatish bilan ifodalangan tarzda qonunga xilof ravishda aralashish yoki ta‘lim tashkiloti pedagog xodimining xizmat vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik” qilgan bo‘lsa, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o‘n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi. Ikkinchi qismining [sanksiyasi](#) muvofiq, “fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa –o‘n besh baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha ma‘muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi”.

Ta‘kidlash joizki, keyingi yillarda mamlakatimizda majburiy mehnatga barham berish, ayniqsa, ta‘lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini o‘z xizmat vazifalari bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga jalb etish hollatlariga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun hujjatlarini hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda ayrim hollatlarda pedagog xodimlarni ularning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan tadbirlarga jalb etish hollatlari kuzatiladi. Shu munosabat bilan “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat [Kodeksi](#)”ga pedagog xodimlarni mehnatga ma‘muriy tarzda majburlaganlik uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin xuddi shunday qilmishni takroran sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi norma kiritilgan. Bundan tashqari, “O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi [Kodeksi](#)”ga pedagog xodimlarni mehnatga ma‘muriy tarzda majburlaganlik, shuningdek ularning kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik uchun javobgarlik kuchaytirilgan. Darvoqe‘, O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunining 45-moddasiga ko‘ra, “Pedagog xodimlarni ularning lavozim majburiyatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan har qanday boshqa ishga jalb qilish taqiqlanadi”. Majburiy mehnatga chek qo‘yish masalasi Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyada tegishli norma bilan belgilangan.

Xabaringiz borki, O‘zbekistonda tub ta‘lim islohotlari sifatida ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta‘lim olish (kunduzgi), ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta‘lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy), dual ta‘lim, oilada ta‘lim olish va mustaqil ta‘lim olish, katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta‘lim berish, inklyuziv ta‘lim, eksternat tartibidagi ta‘lim, mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash ta‘lim olish shakllari joriy etildi. Shu

maqsadlardan kelib chiqib, ushbu o‘rinda inklyuziv va dual ta’limi va uning milliy qonunchilikka, xususan Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyada aks ettirilganligi haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasidagi “inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta’lim tashkiloti”, shuningdek, “inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning alohida ta’lim olish ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni sog‘lom muhitga uyg‘unlashtirish orqali ta’lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlar ta’minlanadi” degan normalar hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 20-moddasidagi “Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan”, shuningdek, “Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi” normalar yangi ifoda bayoni bilan konstitutsion norma sifatida Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aks ettirilgan. Fikrimizni dalili sifatida konstitutsion normani aynan keltiramiz: “Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi” (50-modda). Ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning 9 oy mobaynida davlat tomonidan 417 ta maktabda 734 nafar imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta’limi yo‘lga qo‘yilgan. Inklyuziv ta’lim sohasida 250 nafarga yaqin pedagoglar safarbar etilgan.

Yana bir eng muhim masala, bu dual ta’limi masalasi va uning huquqiy asoslarini Konstitutsiyada belgilanishidir. Xabaringiz borki, umumiy o‘rta ta’lim tizmidagi 4+2 modeli o‘rnida 2+4 modeli joriy etildi. Ushbu model bo‘yicha professional ta’lim maktablarida kasb-hunar o‘rgatish saboqlari 4 kun korxonada va tashkilotlar va qolgan 2 kun kasb-hunar maktabida o‘tkaziladi. Shu tariqa kasb-hunar o‘rganishga ishtiyoqi bo‘lgan yoshlar “Ustoz-shogird maktabi” da saboq olishga muvaffaq bo‘ladilar. Ushbu ta’lim turiga bo‘lgan huquqiy asos Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaga, ya’ni ushbu norma ko‘rinishida “Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi” (50-modda) mazmunida hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda esa “Dual ta’lim ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan bo‘lib, ularning nazariy qismi ta’lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta’lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi” (17-modda) degan norma aks ettirilgan.

Ta’lim islohotlaridan yana biri, bu masofaviy ta’lim masalasidir. Mazkur masala O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida “Masofaviy ta’lim o‘quv rejalari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet

jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan”ligi hamda masofaviy ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi qayd etishgan (16-modda). Ijtimoiy davlatda, ya’ni O‘zbekistonda masofaviy ta’lim muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim oluvchilar uchun qullay shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda. Onlayn ta’limi, xususan pandemiya davrida masofaviy ta’limning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Ko‘pmillatli xalqga ega bo‘lgan O‘zbekistonda davlat tilida va boshqa tillarda, xususan qoraqolpoq, rus, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman tillarida ta’lim olish amaliyotini davom ettirish davlatning ustuvor siyosatini tashkil etadi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlar tarbiyaviy ishlar, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’limi yuqorida qayd etilgan tillarda joriy etilgan. O‘zbekistonning kelajak avlodlari sharq va g‘arb tillarini o‘rganmoqda. Ana shunday amaliyot O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida, xususan 5-moddada ushbu norma orqali “Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi” hamda

Konstitutsiyaning 4-moddasida “O‘zbekiston o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an‘analari hurmat qilishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi” norma bilan huquqiy asoslari mustahkamlangan.

Xulosa qilib aytilganda, har qanday demokratik islohotlarning samarasi, tinchlik hamda taraqqiyotimizning asosiy garovi ham aynan Konstitutsiyamiz bilan bevosita bog‘liq. Konstitutsiyada jamiyat va davlat, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tuzilish hamda faoliyatining asosiy prinsiplari, ularning vakolatlari, fuqarolarning asosiy huquq va burchlari, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar belgilab berilgan.

Shuningdek, milliy qonunchlikka ta’limning huquqiy asoslari hamda kafolatlari Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida hamda ta’lim sohasiga tegishli qonunlarda ustuvor normalar sifatida belgilangan. Ta’lim sohasidagi qonunlarda o‘z ifodasini topgan ayrim normalar, xususan inklyuziv, dual (professional) ta’limlari konstitutsion norma sifatida Konstitutsiyada aks etirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ–595-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/4646908>.
2. “O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ–637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagog xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishga to‘sqinlik qilinganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksiga hamda O‘zbekiston

Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish" O'RQ-826-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/6416492>.

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – B.80.
5. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – B.464.
6. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-kitob. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – B.408.
7. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-kitob. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – B.536.